Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Bleyk, Robert. Technology and the four skills. Language Learning & Technology. 20(2), p. 129–142. http: //dx.doi.org/10125/444652016

(2). Carol A. Chapelle, “Computer Applications in Second Language Acquisition”. Cambridge University Press (2001.

(3). Gulrukh Doniyorova, Guzal Djumayeva, Dilfuza Djabbarova, Bobir Toshmamatov. A technology for teaching ESP to those studying ecology and environmental sustainability. BIO Web of Conferences 93, 05001 (2024) Forestry Forum 2023, https://doi.org/10.1051/bioconf/20249305001

Eshqobilov Elmurod Menglimurod o‘g‘li (Termiz davlat universiteti “Sport boshqaruvi” kafedrasi o‘qituvchisi; e-mail:eshqobilovelmurod25@gmail.com)

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHISINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi nafaqat o‘quvchilarga sport va jismoniy mashqlarni o‘rgatuvchi mutaxassis, balki ularning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydigan ijodkor pedagog hisoblanadi. Bugungi kunda jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning zamonaviy metod va usullari borasida fikr-mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik texnologiyalar, kreativlik, innovatsion metodlar, talabalar tayyorgarligi.*

Эшкобилов Элмурод Менглимуродович (Термезский государственный университет, преподаватель кафедры спортивного менеджмента; e-mail: eshqobilovelmurod25@gmail.com)

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. *Учитель физического воспитания – это не только специалист, обучающий учеников спорту и физическим упражнениям, но и творческий педагог, играющий важную роль в формировании здорового образа жизни. В настоящее время развитие профессионально-педагогического творчества учителя физического воспитания является одной из актуальных задач. В данной статье рассматриваются современные методы и подходы к развитию профессионально-педагогического творчества учителей физического воспитания.*

Ключевые слова: *физическое воспитание, профессиональная подготовка, педагогические технологии, креативность, инновационные методы, подготовка студентов.*

Eshqobilov Elmurod Menglimurod o‘g‘li (Termiz State University, Teacher of the department of sports management; e-mail: eshqobilovelmurod25@gmail.com)

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL CREATIVITY OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Annotation. *A physical education teacher is not only a specialist who teaches students sports and physical exercises but also a creative educator who plays an important role in shaping a healthy lifestyle. Currently, the development of the professional and pedagogical creativity of a physical education teacher is one of the pressing issues. This article discusses modern methods and approaches to developing the professional and pedagogical creativity of physical education teachers.*

Keywords: *physical education, professional training, pedagogical technologies, creativity, innovative methods, student preparation.*

Kirish (Introduction). O‘zbekiston Respublikasining kelajagi zamonaviy ta’lim va ilg‘or texnologiyalarni puxta egallagan, ijodiy va mustaqil fikrlay oladigan, jamoa bilan samarali muloqotga kirisha biladigan, kasbiy va shaxsiy sifatlari shakllangan malakali kadrlar tayyorlashga bog‘liqdir. Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyoda global pozitsiya jarayonlariga moslasha oladigan, iqtisodiy maydonda o‘zini ko‘rsata oladigan hamda millatning rivojlanishiga hissa qo‘shadigan kadrlarni yetishtirish ta’lim tizimini barqarorlashtirishning maqsadi sanaladi. Ta’lim sifati va pedagogik ijodkorlikni rivojlantirish uchun zamonaviy o‘qitish metodlari, innovatsion yondashuvlar, o‘yinli ta’lim texnologiyalari, muammoli ta’lim hamda mustaqil ta’limning noan’anaviy shakllaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsadga faqat kompetentli yondashuv orqali, ya’ni, bo‘lajak kadrlar – jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik kreativligini rivojlantirish orqali erishish mumkin. Kelajak pedagogining kasbiy kompetentligini uning kasbiy faoliyatida bevosita xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan sifatlarning umumiy yig‘indisi sifatida

tushunish mumkin. Shuni alohida qayd etish joizki, kompetentlik deganda, bo'lajak pedagogning kasbiy faoliyati va jamiyatda ishtirok etishi uchun lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasi tushuniladi. U atrof-muhitdagi obyekt va subyektlar bilan samarali o'zaro hamkorlik qobiliyatini o'z ichiga oladi [1;24-b.].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Pedagogik kompetentlik bu jismoniy kasbiy tayyorgarlik, balki pedagogning shaxsiy va kasbiy rivojlanishga yo'naltirilgan doimiy o'sish jarayonidir. Zamonaviy ta'lim muhitida faoliyat yuritish uchun pedagog o'z kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishi zarur va shart. Kasbiy kompetentligini shakllantirish muammosi xorijiy olimlardan B.Bloom, N.V. Kuzmina, H.Gardner, A.K.Markova [4], F.N.Gonobolin, Y.K.Babanskiy, M.Maxmutov, K.D.Ushinskiy; o'zbek olimlaridan A.Abduqodirov, M.To'xtaxo'jayev, Z.Nishonova, G.Abduraxmonova, O.Usmonboyeva boshqalar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Rus psixologi A.K.Markova o'qituvchining kasbiy kompetentligini chuqur o'rgangan yetakchi pedagog olimlardan biridir. U o'z ilmiy izlanishlarida o'qituvchining kasbiy kompetentligini uning pedagogik faoliyatida yuqori natijalarga erishishi bilan bog'liq holda tahlil qilgan. Markovaning ta'kidlashicha, haqiqiy kasbiy kompetentlik faqatgina nazariy bilimlarni egallash bilangina cheklanmaydi, balki ularni amaliyotga samarali joriy etish va pedagogik jarayonda optimal natijalarga erishish orqali namoyon bo'ladi.

Shuningdek, Markova kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonida o'qituvchining ijodkorlik qobiliyatlari, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va samarali yechim topish ko'nikmalari muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, u pedagogik faoliyatning dinamik xarakterga ega ekanligini qayd etib, o'qituvchi o'z malakasini doimiy takomillashtirib borishi lozimligini ta'kidlaydi. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda o'qituvchi faqatgina an'anaviy o'qitish usullaridan foydalanmasligi, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llab, o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda ishlashi kerakligini aytadi [4;72-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishga bag'ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning qiyosiy tahlil, analiz, sintez kabi metodlaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bo'lg'usi pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirishning asosiy maqsadi – uning kasbiy rivojlanish jarayonida ta'lim oluvchilarning o'z-o'zini anglash, baholash va boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. Bu jarayon ularning ta'lim muassasalarida samarali faoliyat yuritishga tayyorlanishi uchun zarur bo'lib, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari asoslarini puxta o'zlashtirishni talab etadi. Mazkur jarayonda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar quyidagilardan iborat:

Bo'lg'usi pedagogning kasbiy faoliyatida pedagogik, maxsus va umumiy bilimlarni chuqur o'zlashtirishga ijobiy munosabatini shakllantirish hamda unga kasbiy o'sish motivatsiyasini berish;

•amaliy mashg'ulotlar davomida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarda mos ravishda tahlil yuritish, to'g'ri qaror qabul qilish va ularni hal etish bo'yicha pedagogik intellektual salohiyatini rivojlantirish;

•jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion va integrativ rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish;

•kelgusidagi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan pedagogik sifatlarni shakllantirish, xususan, bolalarni tushunish va ularga mehr bilan yondashish, boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirish hamda doimiy kasbiy va shaxsiy o'sishga intilishni rag'batlantirish [3;11-b.].

Jismoniy tarbiya ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish va kasbiy pedagogik ijodkorligini shakllantirish hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik o'zida bilim, amaliy mahorat va shaxsiy sifatlarni mujassam etib, o'qituvchini muntazam ravishda izlanishga, o'z ustida ishlashga va bilimlarini doimiy yangilab borishga undaydi. Shuningdek, bu jarayon pedagogning har bir pedagogik vaziyatga ijodiy yondashishi, moslashuvchan bo'lishi va innovatsion yechimlarni ishlab chiqishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi [2;37-b.].

Kasbiy kompetentlikni tahlil qilish jarayonida ko'plab tadqiqotchilar uni ta'limning funksional tarkibi sifatida baholab, tarkibida o'qituvchining bilimi va mahorati uzviy bog'liqlikda namoyon bo'lishini, kasbiy malakasi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini o'z ichiga olishini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, kompetensiya tushunchasi bilim va mahoratga nisbatan yanada moslashuvchan bo'lib, bo'lajak o'qituvchining dolzarb axborotlarni qayta ishlashi, kasbiy faoliyatda innovatsion yondashuvlarni qo'llashi bilan ajralib turadi.

Shunga qaramay, pedagogning kasbiy kompetentligining asosiy negizi uning shaxsiy fazilatlari, maqsadga yo'naltirilganligi, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish-

da moslashuvchanligi va ijodkorligidir. Kompetentlik o‘qituvchining sharoitga tez moslashishi, ta’lim jarayoniga yangiliklar kiritishi va samaradorligini oshirishga qaratilgan xususiyatlar majmuasidan iborat bo‘lib, kasbiy faollik va ijodiy yondashuv bilan o‘z ifodasini topadi [3;137-b.].

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari nafaqat dars jarayonlarini tashkil etuvchi mutaxassislar, balki pedagogik ijodkorlikka ega bo‘lgan, innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lishlari lozim. Ushbu maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyasi kompetentlilik yondashuvi asosida ko‘rib chiqiladi. Kasbiy kompetentlikni shakllantirish metodikasi quyidagi asosiy yondashuv va usullarga asoslanadi:

1. Kompetentlilik yondashuvi – bu metodika kasbiy bilim va ko‘nikmalarni nazariy va amaliy jihatdan uyg‘unlashtirishga qaratilgan. O‘quv jarayonida nafaqat bilim berish, balki kasbiy faoliyatga tayyorlash ham muhim hisoblanadi.

2. Interfaol o‘qitish metodlari – interfaol ta’lim usullari o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarni yechish qobiliyati hamda ijodiy yondashuvini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning faol ishtirokini ta’minlaydi va o‘quv jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

–munozaralar va bahs-munozaralar talabalarni o‘z fikrlarini asoslash va dalillar bilan mustahkamlashga o‘rgatadi;

–rolli o‘yinlar va modellashtirish haqiqiy kasbiy vaziyatlarni yaratish orqali amaliy bilim va ko‘nikmalar mustahkamlanadi;

–loyiha usuli talabalar mustaqil yoki jamoaviy loyihalar ustida ishlash orqali tajribalarini oshiradilar.

3. Innovatsion ta’lim texnologiyalari bu zamonaviy pedagogik yondashuvlar va vositalardan foydalangan holda o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etish hamda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan usullar majmuasidir. Ushbu texnologiyalar an’anaviy ta’lim usullaridan farqli ravishda interfaollik, individual yondashuv va ilg‘or texnologik imkoniyatlardan keng foydalanish bilan ajralib turadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa sifatida shuni alohida qayd etish lozimki, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish ta ‘lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Kompetentlilik yondashuvi asosida ishlab chiqilgan texnologiyalar nafaqat o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga, balki o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol va samarali ishtirok etishiga ham ijobiy ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Kenjaboyev.A.E. Pedagogik deontologiya va kompetentlik. O‘quv qo‘llanma, TerDU nashr-matbaa markazi nashriyoti, 2022, 280-bet.

(2). Shodmonova Sh.S. Umumiy pedagogika nazariyasi va amalivoti. T., «Fan va texnologiya», 2019, 296-bet.

(3). Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. М., «Просвещение», 1995, 336 с.

(4). Маркова А.К. Психология профессионализма. М., “Знание”, 1996, 308 с.

Bakirov To‘lqinjon Yunusaliyevich (Farg‘ona davlat universiteti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd), dotsent; Bakirov_t75@mail.ru; ORCID ID 0000-0001-9848-9542),
Mamatqulov Ravshanjon Ma’murjonovich; Mamatqulovravshanbek7@gmail.com)

TA’LIMDA VA TURLI XIL SOHALARDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’limda texnologiyani ko‘rib chiqamiz, u qanday qilib har bir kishi uchun yangi ta’lim imkoniyatlarini taqdim etishini va bolalar kelajak iqtisodiyoti uchun zarur bo‘lgan raqamli ko‘nikmalarni o‘rganishlari kerakligini tushuntiradi.*

Kalit so‘zlar: *MOOC, LMS, ta’lim texnologiyalari, raqamli ta’lim, interaktiv ta’lim, STEM ta’limi, sinflarda interaktiv doskalar, o‘quvchilarga texnologiya asosida individual ta’lim berish, multimediali o‘quv materiallari, audio, video, animatsiya, dastur.*

ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ И РАЗЛИЧНЫХ СФЕРАХ

Аннотация. *В этой статье мы рассмотрим технологии в образовании: как они предоставляют новые возможности обучения для каждого и как детям необходимо овладевать цифровыми навыками, необходимыми им для экономики будущего.*